

**BOSHLANG‘ICH SINFLARNI O‘QITISHDA INTERAKTIV
METODLARDAN FOYDALANISH**

Yuldasheva Nasiba, Saparova Anorjon
Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 29-sonli mактабнинг
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarni o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish usullari berilgan.

Kalit so‘zlar: interaktiv, interfaol, zamonaviy texnologiya.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta’lim o‘z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o‘qitish, masofadan o‘qitish, internet tarmoqlari asosida o‘qitish, media - ta’lim metodlaridan iborat. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo’llanilmoqda. Agar o‘qitish jarayonida har bir o‘quvchi o‘zining o‘zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta’minlagan bo’lar edi. Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlarda n biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iboratdir. Barcha fan o‘qituvchilari shu jumladan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ham dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol metodlardan borgan sari keng ko‘lamda fo ydalanmoqdalar. Interfaol metodlarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘n ikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Interfaol degani, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida o‘zaro hamkorlik tufayli dars samaradorligini oshadi, yangi darsni o‘quvchi mustaqil harakat, mulohaza, bahs-munozara orqali o‘rganadi, qo‘yilgan maqsadga mustaqil o‘zi darsda o‘quvchi faol ishtirok etgan holda kichik guruhlarda javob topis

hga harakat qiladi, ya‘ni ham fikrlaydi, ham baholaydi, ham yozadi, ham gapiradi, ham tinglaydi, eng keragi o‘zi faol ishtirok etadi. Interfaol usullarini ng negizidagi topshiriq mazmunini anglab yetgan o‘quvchilar ta‘lim jarayo niga o‘zlari bilmagan holda qiziqish bilan kirishib ketadilar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan matematik ta‘limning interfaol strategiyalari ta‘lim jarayonining yengillashuvini, aniqlashuvini, keng jamoani qamrab olishga m o‘ljallanganligini, o‘qituvchining faqatgina yo‘l - y o‘riq ko‘rsatuvchi nazoratchiga aylanishinini, o‘qitishning erkin va majburiyatsizligini hamda eng asosiysi o‘quvchilar uchun o‘ta qiziqarligini va sa maradorligini ta‘minlab bera oladi. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi o‘qitish vositasi sifatida mavjud didaktik o‘yinlar mantiq ilmi va matematika nuqtayı nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli didaktik o‘yinlardan foydalilaniladi va o‘rganilgan materialni faqat mustahkamlash vositasi sifatida foydalilaniladi. Boshlang‘ich maktabda matematika o‘qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o‘quvchilar yakka (individual) yozma so‘rov o‘tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba’zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o‘zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang‘ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda (ayniqsa, kam komplektli maktab uchun mo‘ljallangan) o‘qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko‘proqdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
2. Axmedov M., Abduraxmonova N.Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. “Turon-iqbol” 2008 yil., 160 bet
3. S.Matjonov. X.G‘ulomova, M.Suyunov, H.Boqiyeva ”Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish”, – T., 2008-yil.
4. T. G‘afforova. “Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, – T., 2011-yil.
5. Qashqarova J.M., Pedagogik texnologiyalar. Termiz - 2010.
6. Saparaliyev B.N., O‘quv jarayonlarida didaktik texnologiya. Qarshi - 2017.
7. Fuzuloyev G.U., Boshlang‘ich ta‘limni tashkil etish unsurlari. Qarshi - 2007